

O‘zbekiston Respublikasi
Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi
Agrosanoatni rivojlantirish
agentligi direktorining
2025-yil __13__ - maydagi
__22__ um -son buyrug‘iga 1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni
rivojlantirish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish
SIYOSATI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Siyosat Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligining markaziy apparati (*keyingi o‘rinlarda – Agentlik*), tizim tashkilotlari va muassasalari (*keyingi o‘rinlarda – tizim tashkilotlari*) da halollik siyosatini ta‘minlash, ya‘ni xodimlar orasida hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish, xodimlarning faoliyatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga murosasiz munosabatda bo‘lishi va ularni sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikni qo‘llab-quvvatlashini ifodalaydi.

2. Mazkur Siyosat ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari – Foydalanish bo‘yicha talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablarini inobatga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va yetakchi xalqaro amaliyot asosida O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Agentlik va tizim tashkilotlari mazkur Siyosatga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini mavjud bo‘lgan korrupsiya xavfi, tajribasi va mavjud manbalari asosida ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari shart.

4. Agentlik va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

Agentlik va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga to‘liq barham berilishiga erishish;

aholi va xodimlarning sohada huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

Agentlik va tizim tashkilotlari faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyani oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, uning oqibati, sabab va omillarini bartaraf etish, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun jazoning muqarrarliligi tamoyilini ta‘minlash.

5. Mazkur Siyosat Agentlikning ichki hujjati sifatida yuqorida ko‘rsatilgan asosiy maqsadlarga erishish uchun Agentlik va tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga barham berishga qaratilgan asosiy talablar va tamoyillarni belgilab beruvchi asos hisoblanadi.

6. Mazkur Siyosat talablari egallab turgan lavozimi va bajaradigan vazifa va funksiyalaridan qat'iy nazar Agentlik bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan barcha xodimlarga, shu jumladan, tizim tashkilotlari xodimlariga ham tadbiriq etiladi.

Agentlik va tizim tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan har bir shaxs mazkur Siyosat bilan imzo qo'ygan holda tanishishga va uning qoidalariga rioya qilishga majbur.

7. Mazkur Siyosat maqsadlarida quyidagi asosiy tushuncha va atamalar qo'llaniladi:

aloqador shaxslar – xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno;

ish jarayonidagi mehmondo'stlik belgilari – Agentlik va tizim tashkilotlari xodimlari manfaatlarida faoliyat davomida hamkorlik o'rnatish va (yoki) qo'llab-quvvatlashga aloqador xarajatlar, shu jumladan, ishbilarmonlik bilan bog'liq kechki ovqat, transport va yashash xarajatlarini qoplash bilan bog'liq xarajatlar va h.k.;

korruptsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi, shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik – korruptsiya belgilariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korruptsiyaviy xavf-xatar – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari yohud uchinchi shaxslar tomonidan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab korruptsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli va xavfi;

korruptsiyaga qarshi kurashish talablari buzilganligi to'g'risida vijdonan xabar berish – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan korruptsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilganligi (sodir etishga suiqasd qilinganligi) to'g'risida rusxat etilgan aloqa kanallari orqali asosililigiga ishonch hosil qilgan holda yo'llagan murojaat;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi – qo'llaniladigan amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korruptsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

korruptsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani ya'ni pul, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulklar, mulkiy tusdagi xizmatlar, boshqa moddiy va nomoddiy turdagi mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, va'da qilish

va berish, shuningdek, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlarni olish, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o'z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish;

kontragent (shartnomaviy sherik) – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda xodimning shaxsiy manfaatdorligi bilan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to'lovlar – belgilangan tartib-taomillar bajarilishini ta'minlash yoki tezlashtirish, tegishli qonunchilik, normalar va qoidalarda nazarda tutilmagan harakatlar sodir etish uchun g'ayriqonuniy ravishda beriladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar va boshqa moddiy yoki nomoddiy naf;

xodim – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimi tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari);

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari

8. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini quyidagi tamoyillarga asoslanib amalga oshiradi:

fuqarolik jamiyati vakillari bilan o'zaro hamkorlik – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda o'z faoliyatini halollik, xolislik va mustaqillik asosida mustaqil nazorat qilish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb etadi;

korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi – korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari o'zining maqomi va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar;

korrupsiyaga toqatsizlik – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko‘rinishlariga murosasiz munosabatda bo‘ladi. Xodimlarning har qanday korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo‘lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi taqiqlanadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish – korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirish natijalariga ko‘ra Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini to‘xtovsiz ravishda oshirish choralari ko‘radi;

ochiqlik va shaffoflik – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida xodimlar va kontragentlar, shu jumladan keng jamoatchilikni xabardor qilib borish;

preventivlik – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishiga va korrupsiyaviy xavf vujudga kelishiga sabab bo‘ladigan shart-sharoit hamda omillarni bartaraf etishga qaratilgan preventiv chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat beradi;

tizimlilik – korrupsiyaga qarshi kurashish Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari faoliyatining barcha yo‘nalishlarida tizimli ravishda amalga oshiriladi;

texnika taraqqiyotining yutuqlaridan foydalanish – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratishda ilm-fan taraqqiyotining so‘nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishga intiladi;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri rahbariyatga murojaat qilish – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining har bir xodimi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilganligi to‘g‘risida ishonchli va asosli ma‘lumotlar mavjud bo‘lganda belgilangan choralarni ko‘rish uchun to‘sqinliksiz o‘z rahbari va agentlik direktoriga murojaat qilishi mumkin;

qonuniylik – Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha jahonda tan olingan amaliyotni hisobga olgan holda hamda Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida belgilangan ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining elementlari

9. Korrupsiyaga “mutlaqo toqatsizlik” tamoyiliga tayangan holda Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining barcha xodimlariga korrupsiya bilan bog‘liq har qanday xatti-harakatlarda ishtirok etishi, qonunga xilof boshqa maqsadlarda o‘z xizmat mavqeidan foydalanishi qat’iyan taqiqlanadi.

10. Quyidagilar Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi asosiy elementlari hisoblanadi:

a) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy ichki hujjatlar mavjudligi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosini:

mazkur Siyosat;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlarining odob-axloq qoidalari;

Agentlik markaziy apparati, hududiy bo'linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida ishlab chiqilgan ichki idoraviy xujjatlar va ularda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.

b) "Yuqoridan quyiga munosabat" – Yuqori darajada rahbarlik namunasi.

Agentlik direktori, direktor o'rinbosarlari, tizim tashkilotlari rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurashish samarali tizimini yaratish va amalga oshirishda quyidagilar orqali yetakchilikni namoyish etadilar:

Agentlik rahbariyati va tizim tashkilotlari rahbarlari xodimlarga oliy rahbarlik namunasini ko'rsatish;

Agentlik rahbariyati, shuningdek tizim tashkilotlari rahbarlari bo'ysunuvidagi xodimlar, fuqarolar va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda halol, adolatli hamda namunaviy xulq-atvorga ega bo'lishlari orqali ularda korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf mavjud vazifalar, sohalar va funksiyalarni boshqarishda samarali chora-tadbirlar va tartiblarni joriy etishda, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini (*yo'l xaritasini*) ishlab chiqish va uning ijrosini nazorat qilish orqali ko'maklashish;

o'z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasida, Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlarida korrupsiyaning barcha shakllari va ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy nigilizm, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, amaldagi qonunchilik normalari va qabul qilingan ichki hujjatlarga rioya qilish;

v) korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul shaxslar va bo'linmalar.

Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaviy xavfni aniqlash va baholash Agentlikning Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Mazkur jarayonga tizim tashkilotlari rahbarlari hamda boshqa taalluqli mas'ul xodimlar ham faol jalb etiladi.

Agentlikning Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (*keyingi o'rinlarda - Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi*) o'z vazifalarni amalga oshirishda yetarli darajada mustaqillikka va muhim resurslarga ega bo'lib,

bevosita Agentlik direktoriga bo'ysunadi va o'z faoliyatini direktor tomonidan tasdiqlangan nizomga muvofiq amalga oshiradi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish uchun tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida bo'linma, mutaxassis lavozimi tashkil qilinishi, yoki ruxsat etilgan lavozimlar (*keyingi o'rinlarda - korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul xodimlar*)ga korrupsiyaga qarshi kurashish funksiyasi yuklatilishi mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashish funksiyalari tizimda yuqori darajada korrupsiyaviy xavf-xatarga ega bo'lmagan, shuningdek, yetarli darajada mustaqil bo'lgan xodimiga yuklatiladi;

Tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul xodimlari o'z tashkilotida korrupsiyani bartaraf etish choralarini ko'radi, shu bilan birga, o'ziga yuklatilgan vazifalar doirasida Agentlikning Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi bilan hamkorlik qiladi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limlari va mutaxassislari (*keyingi o'rinlarda – Xodimlar bo'limi*) Agentlik markaziy apparati, hududiy bo'linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari normalariga muvofiq belgilangan tartibda va hajmda xodimlar va aloqador shaxslarning yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va tizimli yig'ish, tahlil qilish va yangilab borish uchun javobgar bo'ladi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining odob-axloq komissiyalari xodimlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi Xodimlar bo'limidan kelib tushgan ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va (*manfaatlar to'qnashuvi tartibga solinmagan taqdirda*) uni hal qilish bo'yicha qaror qabul qiladi yoki aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarliligi yoxud yetarli emasligi to'g'risida qaror qabul qiladi, shuningdek, Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi masalalarini Xodimlar bo'limi ko'rib chiqadi. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish doirasida Xodimlar bo'limlari va Odob-axloq komissiyalari (yoki shunga o'xshash komissiyalar) Agentlik markaziy apparati, hududiy bo'linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom asosida ish yuritadi;

g) korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash.

Agentlik xodimlarning korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishini hisobga olgan holda, faoliyatida yuzaga kelish ehtimoli va ta'sir qilish darajasidan qat'i nazar korrupsiyaviy xavflarni boshqarish zaruratini tan oladi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari faoliyatining barcha yo'nalishlari korrupsiyaviy xavfga ko'proq uchraydigan funksiyalarni aniqlash maqsadida tizimli tahlildan o'tkaziladi.

Shunga ko'ra, Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari sohalari va bajarayotgan funksiyalariga xos hamda boshqa ichki va tashqi omillarga bog'liq korrupsiyaviy xavfni aniqlaydi va baholaydi.

korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash jarayonida Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshchiligi va nazorati ostida Agentlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari rahbarlari hamda mas'ul xodimlari, korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi shaxslar ishtirok etadi;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bir yilda kamida bir marta amalga oshiriladi. Baholash natijalari Direktor va tegishli rahbarlar tomonidan ko'rib chiqiladi;

Aniqlangan xavflarni boshqarish, minimallashtirish hamda uning asosiy omillarini bartaraf etish choralari Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlari, ish rejalari yoki dasturlarida aks ettiriladi.

d) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishga qaratilgan choralar:

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari o'z faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish, umumiy nazorat muhitini yaratish va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarini o'z ichiga oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashishning kompleks tizimini joriy etadi.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashishni nazorat qilish va tartib-taomillarning samaradorligi, jumladan, ularning aniqlangan xavf-xatar darajasiga mutanosibligi, o'z xodimlari uchun qat'iyligi va aniqligi, keng jamoatchilik uchun shaffofligini ta'minlashga intiladilar.

Amalga oshiriladigan tadbirlar, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nazorat choralari va tartib-taomillar Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha me'yoriy hujjatlarida (*chora-tadbir, ish reja, yo'l xaritasi*)da aks ettiriladi hamda tegishli ichki hujjatlarda belgilanadi.

e) axborotlashtirish, kommunikatsiya va maslahat berish.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablari haqida jamiyatning xabardorligini oshirish maqsadida, mazkur Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar Agentlikning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi;

Xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari bilan tanishtirish maqsadida:

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlarini yiliga kamida bir marta korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha doimiy va tizimli o'qitish, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlarni mazkur Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki hujjatlar bilan majburiy tartibda tanishtirish bilan birgalikda ularni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy kurslarda o'qitiladi. Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar

uchun tuzilmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha ta'lim dasturlari belgilanadi. O'tkazilgan o'qish (treninglar) haqidagi ma'lumotlar Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari Xodimlar bo'limida qonunchilikda belgilangan tartibda saqlanadi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari va fuqarolarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida audio va videoroliklar hamda boshqa axborot ma'lumotlaridan foydalangan holda profilaktik tadbirlar o'tkaziladi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy holatlar haqidagi ma'lumotlar bo'yicha xabar berilishi mumkin bo'lgan aloqa kanallari tashkil qilinadi;

Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ullar mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash, korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq savollar kelib chiqqanda Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlariga maslahatlar beradi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlarining mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarini kiritiladi;

xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashishda lozim bo'lgan xulq-atvorni shakllantirish yuzasidan tashviqotlar o'tkaziladi;

kontragentlarni korrupsiyaga qarshi kurashish qabul qilingan talablar va tamoyillar haqida, shu jumladan, ular bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus shartlarni kiritish to'g'risida xabardor qiladi va h.k.;

g) monitoring, nazorat va hisobot:

Agentlikning Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning yetarliligi, mutanosibligi va samaradorligini baholaydi hamda doimiy monitoringini olib boradi. Monitoring natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli choralar ko'radi.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida monitoring va nazorat qilishning quyidagi tartib-taomillari amalga oshiriladi:

ichki va tashqi omillarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga ta'sirini tahlil qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga o'zgartirish kiritish zaruriyatini tahlil qilish, shu jumladan, uni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash;

samarasiz tartib-taomillarni aniqlash, tegishli o'zgartirishlar kiritish va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ishonchligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida tanlov asosida funksiyalar va ichki jarayonlarni monitoring qilish;

ichki va (yoki) tashqi tekshiruvlarni o'tkazish jarayonida Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talablarga rioya qilinishini nazorat qilish;

tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ullar boshqa tarkibiy tuzilmalarga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarning o'z vaqtida va tegishli tartibda amalga oshirilishi ustidan nazorat olib borish va h.k.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini nazorat qilish va monitoringi bo'yicha chora-tadbirlar natijalari Agentlik hay'ati majlislarida, tizim tashkilotlari majlislarida muhokama qilinishi mumkin.

z) huquqbuzarliklarga nisbatan munosabat bildirish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish:

Mazkur Siyosatga va Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlariga rioya qilish har bir xodim uchun majburiydir. Xodimlar belgilangan talab va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi. Tizim tashkilotlari rahbarlari o'z bo'ysunuvidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish uchun mas'ul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan talablar, tartib va tamoyillarni buzgan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda va asoslarda intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Xodimlar ularni korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarlikni sodir etishga undovchi shaxslarning har qanday murojaatlari to'g'risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida o'ziga ma'lum bo'lgan har qanday faktlar haqida o'z rahbarlariga va Agentlikni Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishlari shart.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishlari bilan bog'liq har qanday asosli shubha bo'yicha xizmat tekshiruvlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq va ichki hujjatlarda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari, mazkur Siyosat va boshqa ichki hujjatlarida belgilangan korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillarni buzgan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari, ularning lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda Agentlikning ichki idoraviy hujjatlarida belgilangan normalarga asosan javobgarlikka tortiladilar.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishiga sabab bo'lgan omillar va shart-sharoitlar tahlil qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi doimiy ravishda takomillashtirib boriladi.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari, shu jumladan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi va korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ullar korrupsiyaga oid

huquqbuzarliklarni aniqlash va tekshirishda, vakolat doirasida huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari

1-§. Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish

11. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish va (yoki) Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari manfaatlarini ifodalash doirasida vijdonlilik va halollik tamoyillariga amal qilishi, shaxsiy manfaatlarini hisobga olgan holda o‘zlarining xizmat mavqeidan va (yoki) Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining mol-mulkidan foydalanmaslik va manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan saqlanishlari lozim.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari o‘zlarining xizmat majburiyatlarini lozim darajada va xolis bajarishlariga, jumladan, xolis qaror qabul qilishga hamda Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining huquqlari, qonuniy manfaatlar, mol-mulki va (yoki) nufuziga ta’sir qiladigan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan vaziyatda manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga keladi.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining har bir xodimi xizmat vazifalarni bajarish chog‘ida vujudga kelgan yoki vujudga kelishi ehtimoli mavjud manfaatlar to‘qnashuvi haqida o‘zining bevosita rahbariga zudlik bilan xabar berishi shart.

12. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimlari ishga qabul qilinishida, boshqa lavozimga o‘tkazilishida manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligi haqidagi ma’lumotlarni har yili va tegishli vaziyatlar/holatlar yuzaga kelishiga qarab oshkor qilishga majburlar. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish va uni hal qilish jarayoni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ichki idoraviy xujjatlar asosida tartibga solinadi.

2-§. Sovg‘alar va ish jarayonida mehmondo‘stlik belgilari

13. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlariga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq holda jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg‘a yoki ish jarayonida mehmondo‘stlikning belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag‘batlantirish vositalarini, naqd pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalenti, qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida moddiy yordam qabul qilish taqiqlanadi.

14. Xodimlar tomonidan rasmiy delegatsiyalar tarkibida, rasmiy tadbirlarda, jumladan, xorijiy xizmat safarlarida olingan sovg‘alarning tasarruf qilinishi Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023 yil 13 martda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3425*) hamda ichki idoraviy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

15. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlariga ularning shaxsi bilan bog‘liq bayram kunlarida (*tug‘ilgan kun, nikoh qurish, farzand tug‘ilishi, Vatan*

himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni va hokazo) berilgan, xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lmagan sovg'alar - xodimning shaxsi bilan bog'liq sovg'alar deb tan olinadi.

Bunday sovg'alarni berishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

sovg'alar kamida uch nafar xodimlar ishtirokida berilishi;

sovg'a berish jaryoni tabrik nutqi bilan birga bo'lishi, unda sovg'a berishga sabab bo'lgan voqea o'zining aniq ifodasini topgan bo'lishi;

sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliqlar va yig'implarni hisobga olgan holda) **4 (to'rt) bazaviy hisoblash miqdoridan** oshmasligi;

bir xodimning boshqa xodimga sovg'a uchun sarflaydigan xarajat summasi, har bir holatda 1 (bir) bazaviy hisoblash miqdordan oshmasligi kerak.

16. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlariga shaxsi bilan bog'liq bayram kunlari (*Siyosatning 14-bandida qayd etilgan*) munosabati bilan ham boshqa davlat idoralari, jismoniy va yuridik shaxslardan har qanday ko'rinishda sovg'alar, boshqa moddiy boylik va nomoddiy qimmatliklarni olishi taqiqlanadi.

17. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi nomidan xalqaro konferensiyalarda, simpoziumlarda va boshqa ishbilarmonlik (*xizmatga oid*) yig'ilishlarda sovg'alar berish Agentlik direktori yoki uning o'rinbosarining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

18. Sovg'ani qabul qilishning qonuniyligi to'g'risida shubha tug'ilgan har qanday hollarda xodim Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ullarga maslahat so'rab murojaat qilishi lozim.

3-§. Xodimlarni tanlash, lavozimdan lavozimga o'tkazish, moddiy rag'batlantirish

19. Xodimlarni tanlash, ularni attestatsiyadan o'tkazish va faoliyatini baholash, shu jumladan mukofot pullarini to'lash, ustama haqlar va boshqa turdagi mukofotlarni belgilash jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng va xolis bo'lib, mazkur Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga muvofiq kelishi lozim.

20. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida rahbar va xodimlarni mukofotlashga asos bo'lib xizmat qiladigan, ular faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mazkur ko'rsatkichlar xolis, oshkora hamda tizim xodimlari tomonidan ko'rib chiqish imkoniyati ta'minlangan bo'lishi shart.

4-§. Tekshirishlarni o'tkazish hamda tizim tashkilotlari faoliyatini o'rganish

21. Turli xil tekshirishlarni o'tkazish hamda tizim tashkilotlarining (*keyingi o'rinlarda – "Tekshirish ob'yektlari"*) faoliyatini o'rganishda Agentlik xodimlari:

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi;

ob'ektni tekshirish yoki o'rganish bir xodim tomonidan amalga oshirilmasligi;

sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni soxtalashtirish uchun tekshirish ob'ekti vakillarining yetarli bilimga ega emasligidan foydalanib qonun hujjatlari normalarini noto'g'ri talqin qilmasligi, ularni aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish bilan qo'rqitmasligi;

tekshirilayotgan ob'yektning xodimlariga tahdid qilmasligi;

tekshirish predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasligi va ortiqcha hujjatlarni so'ramasligi.

tekshirish davomida aniqlangan har bir huquqbuzarlik holatlariga qonuniy va professional baho berishi;

agar tekshirish ob'yekti vakillari xodimlarga aniqlangan qonunbuzarliklarni yashirish uchun pora va (yoki) biron-bir moddiy qimmatlik yoki xizmatlarni taklif qilsa, tekshirish guruhi rahbarlari Agentlikning Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi yoki tizim tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul xodimini darhol xabardor qilishlari;

tekshirish ob'yekti vakillariga nisbatan axloqiy xulq-avtor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishlari shart.

22. O'tkazilgan tekshirish natijalari bo'yicha Agentlik tomonidan qabul qilingan qarorlar yuzasidan kelib tushgan e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun komissiya tashkil etiladi.

5-§. Kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar

23. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari mazkur Siyosatning tamoyillari va talablariga zid bo'lgan har qanday to'lovlar va (yoki) shu kabi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi mahsulot yetkazib beruvchilarni, pudratchilarni va boshqa uchinchi tomonlarni jalb qilmaydilar.

24. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari kontragentlar bilan munosabatlarda qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladilar. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida tanlashning xolis mezonlaridan foydalanishga asoslangan, mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlab olishning haqqoniy, ochiq va shaffof jarayoni, shuningdek sotib olinadigan mahsulot (*tovar, ish va xizmatlar*) qiymatini belgillashning shaffof tartibi joriy etilib, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining ichki idoraviy hujjatlari bilan tartibga solinadi

25. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari kontragent bilan o'zaro hamkorlikda:

Kontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq potensial kontragentning ishonchligini, shu jumladan o'tmishda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir qilganligi yoki qilmaganligi, Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini tekshiradilar;

potensial kontragentni (*tanlov, tender g'olibini va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid kontragentini*) ular bilan tuziladigan shartnomalar

matniga korrupsiyaga qarshi maxsus shartlarni qo'shish orqali, o'zining korrupsiyaga qarshi tamoyillari va talablari haqida xabardor qiladi.

6-§. Xayriya va homiylik faoliyati

26. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari qonunda nazarda tutilgan hollarda xayriya va homiylikni qabul qilishlari mumkin. Bunday yordamni olgan paytda Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi, mablag'larni qonunda va (yoki) shartnomada belgilangan maqsadlar uchun samarali sarflanishini ta'minlashi shart, shuningdek bu haqda o'zining rasmiy veb-saytlari orqali jamoatchilikka oshkor qilishi mumkin.

27. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan xayriya va homiylik yashirin mukofot tarzida bo'lmasligi va Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining alohida xodimlari tomonidan xayriya qiluvchi yoki xomiy, ularga aloqador shaxslar hamda xayriya qiluvchi yoki xomiyning shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan shaxslar foydasiga qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

7-§. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari faoliyatini videotasvirga olish va translyatsiya qilish

28. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlarining faoliyatini nazorat qilish uchun yo'laklar va xizmat xonalarida video va audio yozuv kameralari joylashtiriladi, ularning yozuvlari Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining mas'ul xodimlari tomonidan doimiy ravishda kuzatib boriladi.

29. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlariga korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyalari joylashtirilishi mumkin (*xodimlar bilan suhbat o'tkazish va ularni sinovdan o'tkazish, komissiya yig'ilishlari va boshqalar*).

8-§. Ichki idoraviy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

30. Ichki idoraviy hujjatlarni ularda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon yaratadigan korrupsiyaviy omillar kelib chiqishini oldini olish, aniqlash va istisno qilish maqsadida huquqiy hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkaziladi.

9-§. Xodimlarga maslahat berish

31. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlari, mazkur Siyosat qoidalari yoki Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida ishlab chiqilgan boshqa chora-tadbirlar va tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan har qanday savollar bo'yicha o'zlarining rahbarlari, Agentlik Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul xodimlari hamda Agentlikning ishonch telefoniga murojaat qilishlari mumkin.

5-bob. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish

32. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari va boshqa shaxslar, agar ularda boshqa Vazirlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari xatti-harakatlarining qonuniyligi va (yoki) odob-axloqqa muvofiqligi to'g'risida shubha tug'ilsa, korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlari sodir etilishiga gumon yoki sodir

etilganligi faktlari bo'lsa, ular bu haqda Agentlikning foydalanish mumkin bo'lgan aloqa kanallari orqali xabar berishlari mumkin.

33. Agentlik o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida huquqbuzarlik to'g'risida ishonchli ma'lumot bergan shaxsning maxfiyligini ta'minlaydilar (*qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno*).

34. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari o'z xodimlarining manfaatlarini himoya qiladilar va qasos olishga qaratilgan harakatlarga, shu jumladan ishdan bo'shatish, lavozimni pasaytirish, kamsitish, bosim o'tkazish, Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining boshqa xodimlarining shubhali harakatlari yoki ular tomonidan mazkur Siyosatning korrupsiyaga qarshi talablarini buzish ehtimoli haqida xabar bergan shaxslarni ta'qib qilinishiga yo'l qo'ymasligini kafolatlaydilar.

35. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni quyidagi aloqa kanallari orqali berish mumkin:

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari tomonidan o'rnatilgan ishonch telefon raqamlari;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining telegram tarmog'idagi kanallari;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirilgan shakllar;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining elektron pochta manzillari;

to'g'ridan-to'g'ri huquqni muhofaza qilish organlari.

36. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari ichki hujjatlariga muvofiq mas'ul bo'linma yoki xodim tomonidan xolis tarzda va o'z vaqtida ko'rib chiqiladi.

37. Anonim yuborilgan xabarlarda qayd etilgan holatlar bo'yicha qonun hujjatlariga zid bo'lmagan dastlabki o'rganish amalga oshiriladi.

Qayd etilgan holatlar o'z tasdig'ini topgan taqdirda, Komplains nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tashabbusi bilan xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

38. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiyaviy holat haqida qasddan yolg'on ma'lumot taqdim etilishi Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari odob-ahloq qoidalarining buzilishi deb baholanadi va ichki idoraviy hujjatlarga muvofiq tegishli intizomiy jazo chorasi qo'llaniladi.

39. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida korrupsiya faktlari to'g'risida vijdonan xabar bergan xodimlar, agar bu ma'lumotlar tasdiqlanadigan bo'lsa, belgilangan tartibda rag'batlantirilishi mumkin.

6-bob. Javobgarlik

40. Mazkur Siyosat talablari Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining barcha darajadagi rahbar va xodimlari uchun majburiy xarakterga ega bo'lib, ular mazkur Siyosat va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari

talablariga rioya qilmagan, korrupsiyaviy holatlarga yo‘l qo‘ygan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

7-bob. Yakuniy qoidalar

41. Mazkur Siyosat quyidagi hollarda qayta ko‘rib chiqilishi va unga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin:

korrupsiyaga qarshi kurashish amaldagi siyosat va tartib-taomillarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini kelib chiqqanda;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi o‘zgarganda;

tahlillar natijasida samarasiz nazorat va tartib-taomillar aniqlanganda va Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishga zarurat tug‘ilganda;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining tashkiliy tuzilmasi va (yoki) vazifalarning bajarish xususiyatlari va boshqalar o‘zgarganda.